

**O'ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI VA
BUNDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI****ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ И
УЧАСТИЕ В НЕМ ЖЕНЩИН****STATE POLICY ON THE DEVELOPMENT OF SPORTS IN UZBEKISTAN AND THE
PARTICIPATION OF WOMEN IN IT****Omonova Sarvinoz Orif qizi¹**¹Omonova Sarvinoz Orif qizi

– Qarshi davlat universiteti, dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya

O'zbekistonda umuman qiz bolalarni sport tadbirlariga jalb etishga jiddiy ahamiyat qaratilib, buning uchun qat'iy chora-tadbirlar rejalari ham ishlab chiqildi. Sportning turli yo'nalishlari bo'yicha dasturlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, davlat tomonidan o'quvchi qizlarning Olimpiyada harakatida ishtirok etishlari uchun yanada kengroq imkoniyatlarni yaratish maqsadida Milliy Olimpiya Qo'mitasi qoshida ayol va sport yo'nalishi bo'yicha komissiyasi tashkil etildi.

Аннотация

В Узбекистане уделяется серьезное внимание привлечению девушек к занятиям спортом, для этого разработаны четкие планы мероприятий. Были приняты и внедрены в практику программы по различным направлениям спорта. Также в целях создания более широких возможностей участия школьниц в олимпийском движении при Национальном олимпийском комитете была создана комиссия по делам женщин и спорту.

Abstract

In Uzbekistan, serious attention is paid to the involvement of girls in sports activities, and strict action plans have been developed for this purpose. Programs in various areas of sports were adopted and put into practice. Also, in order to create wider opportunities for schoolgirls to participate in the Olympic movement, a commission on women and sports was established under the National Olympic Committee.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi, normativ hujjat, rivojlantirish, jismoniy tarbiya, sport o'yinlari, xalqaro musobaqalar, Olimpiya o'yinlari, yoshlar va ayollar.

Ключевые слова: Женщины, Национальный олимпийский комитет Узбекистана, нормативный документ, развитие, физическое воспитание, спортивные игры, международные соревнования, Олимпийские игры, молодежь и женщины.

Key word: Women, National Olympic Committee of Uzbekistan, regulatory document, development, physical education, sports games, international competitions, Olympic Games, youth and women.

KIRISH

Jamiyat rivojini belgilovchi asosiy omillardan biri bu ayollarga munosabat masalasining qay darajada yo'lga qo'yilishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqi orasida ayolni ardoqlash, unga hurmat ko'rsatish doimo yuqori o'rinda turgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan doimiy ravishda davlat tomonidan kuchli e'tibor berildi. Xotin-qizlar masalasining huquqiy asoslari mustahkamlab borildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila Kodeksi, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi normativ hujjatlar shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahonning nufuzli xalqaro tadqiqot markazlarining fikricha, O'zbekiston dunyo davlatlari orasida xotin-qizlar sportini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallab keldi[1].

Buni O'zbekistonda xotin-qizlar sporti bo'yicha davlat tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy hujjatlar va ularda belgilangan chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etib borilishida ko'rish mumkin. O'zbekistonlik sportchi qizlar ko'plab xalqaro va olimpiada musobaqalarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha oldingi o'rinda turdi.

O'zbekistonda xotin-qizlar sportini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ular uchun zamonaviy sport inshootlarini barpo etish, ularni modernizatsiya qilish, sportchi qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro arenalarda yuqori natijalarga erishgan xotin-qizlarni taqdirlash bo'yicha

doimiy ravishda chora-tadbirlar olib borildi. O'z o'rnida bu kabi tadbirlar sog'lom avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyatining keng huquqiy asoslari yaratildi. 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi[2]. 2000-yil 26-mayda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning ikkinchi yangi tahriri qabul qilindi. 2015-yil 5-sentyabrda esa Qonunning uchinchi yangi tahriri qabul qilindi. Qonun 8 ta bob va 47 moddadan iborat[3]. Mazkur hujjat yoshlar va ayollarni sportga jalb etish, sportni davlat tomonidan yanada kengroq qo'llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni hozirgi zamon talablariga chiqarish, murabbiylar tayyorlash sohasini mustahkamlash, sportning zamonaviy infratuzilmasini vujudga keltirish, xalq o'yinlari sport turini targ'ib etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, sport sohasini samarali boshqarish, sport bilan shug'ullanuvchilarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning kafolatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qonunda "sportchi" tushunchasiga aniq ta'rif berilishi, sportchilarni ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berildi[4].

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini yo'lga qo'yish tadbirlari kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida doimiy ravishda davlatning e'tiborida bo'ldi. Masalan, 1991-1997-yillar O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrning muhim jihati avvalo sohani boshqarishning tashkiliy asoslarining takomillashtirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Jumladan, bu davrda O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Mustaqillik sharoitida ommaviy sport ishlarini kuchaytirishga aholini sog'lomlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraldi. Ayniqsa bu davrda milliy sport turlari va o'yinlariga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Chunki shu paytga qadar xotin-qizlar sportiga e'tibor yo'q hisobi edi. Masalan, 1990-yillarning boshlarida institut va universitetlarda ta'lim olayotgan talaba qizlarning ko'pchiligi, qariyb 60 foizi sport turlari bilan shug'ullanmadi[5].

Mustaqillik davrida asta-sekinlik bilan sport tadbirlari ommalashib, xalqaro sport tadbirlarida muayyan natijalarga erishildi. 1991 – 1997-yillarda milliy kurash bo'yicha jahon chempionatlari, tennis bo'yicha "Prezident Kubogi" xalqaro turniri, sportning xalqaro ayollar musobaqalari, shuningdek, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlarida "Chelenjer", "Fyuchers" va "Satellit" kabi xalqaro musobaqalari o'tkazildi. Mamlakat sportchilari ilk bor mustaqil jamoa sifatida 1992, 1996-yilda yozgi, 1994-yilda qishki Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi[6].

1991-yilda O'zbekistonda 52 ta sport turi mavjud bo'lsa, keyingi yillarda 74 ta sport turidan 65 dan ortig'i hududlarda keng rivoj topib, jarayon ko'lamini kengaytirish uchun sharoitlar yaratildi[7]. O'zbekistonda bu borada amalga oshirilgan islohotlarda xotin-qizlar sportini rivojlantirish markaziy o'rinlardan birini egalladi. Aynan sport ayollarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini kuchaytirishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1995 yil 2-martda "Davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon imzolandi[8]. Hujjatga muvofiq respublika xotin-qizlar boshqaruv tizimida o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu kabi hujjatlarning e'lon qilinishi ma'lum ma'noda xotin-qizlar sporti rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayollarning «To'maris» sport festivali, «Jasorat-iroda-g'alaba» nogironlar sport musobaqalari, o'quvchi va talabalarning «Umid nihollari» va boshqa sport musobaqalari doimiy o'tkazilib borildi[9].

Keyingi yillarda ayollar o'rtasida sportni keng targ'ib etish rivojlantirish va ularni sport tadbirlariga jalb etish maqsadida xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari ko'paytirib borildi. Bunda ayniqsa xotin-qizlar o'rtasidagi spartakiadalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda sportning tennis turini yo'lga qo'yish va targ'ib etish, bu sohadagi sportchi ayollarga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Bu o'z o'rnida ayollar o'rtasida sportning tennis turini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi 274-sonli "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[10], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish haqidagi

Farmoni xotin-qizlar salomatligini yaxshilash, ayniqsa, talaba-qizlarni jismonan sog'lomlashtirish tadbirlarini kuchaytirishga xizmat qildi[11].

O'zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining (1999-yil 10-iyunda) ta'sis etilishi, boshqa sohalar qatori sport yo'nalishida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi[12]. Ushbu mukofot sohiblari orasida sportchi qizlar ko'pchilikni tashkil etdi.

2002-yili O'zbekistonda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi o'z faoliyatini boshladi. Jamg'arma tomonidan sportni yoshlar o'rtasida yanada ommalashtirish, jahon va xalqaro musobaqalar g'oliblari, faxriy sportchilar va yoshlar bilan mahorat darslarini tashkil etish tadbirlarini olib bordi. Ushbu tadbirlarda 34864 nafar yoshlar, shuningdek 6331 nafar qizlar ishtirok etdi[13].

2002-yil 5-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholi orasida tibbiy madaniyatni ko'tarish, ayollar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari xususidagi qarori e'lon qilinib, hujjatda "Sog'lom avlod uchun" sovrini uchun qizlar o'rtasida sport musobaqalari, shu jumladan, sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish vazifasi davlat organlariga yuklatildi. Respublika hududlarida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan 2005-yildan boshlab gimnastika, sog'lom avlod, oila mavzular bo'yicha turli shiorlar ostida sport musobaqalari tashkil etilib, ularda har yili 500 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etdi[14].

O'zbekistonda sportni rivojlantirish Davlat dasturi Konsepsiyasi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rivojlanishining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslarini belgilab berdi. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 iyundagi o'quvchi va talabalarni sportga yanada kengroq jalb qilish maqsadida uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish borasidagi qarorida umumta'lim maktablarning o'quvchilari, kollej o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalarining sport o'yinlari tashkil qilib borildi[15].

XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijalarini umumlashtirgan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda sportning 50 dan ortiq yo'nalishi ommalashgan va shundan 30 tasi Olimpiada musobaqalari dasturiga kiritilgan[16]. Shuningdek, 2004-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda sportning turli yo'nalishlari bo'yicha jami 63 ta federatsiya faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular qat'iy belgilangan reja asosida faoliyat ko'rsatib bordi[17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-mayda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash haqidagi PF-3434-sonli Farmoni e'lon qilindi. Hujjatda xotin-qizlar faoliyatini tubdan yaxshilash va ularni sportga kengroq jalb etish tadbirlarini ham kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonda sog'liqni saqlash. Zdravooxraneniye Uzbekistana, 2006 yil 29 avgust. – № 35.– B.4. (Health care in Uzbekistan. August 29, 2006. – No. 35.– B.4.)
2. O'zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni, 1992 y.,– №3,160 modda. (Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, Law "On Physical Education and Sports", 1992, Article No. 3,160.)
3. Olimpiya bilim asoslari. – T., 2000. – B.139. (Basics of Olympic knowledge. - T., 2000. - P.139.)
4. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2015 yil 4 sentabr. (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Physical Education and Sports", September 4, 2015.)
5. Azimov H.G., Sobitov Sh.S. Sport fiziologiyasi. – Toshkent, 1993. – B.43. (Azimov H.G., Sobitov Sh.S. Sports physiology. - Tashkent, 1993. - P.43.)
6. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan Respublika anjumani. Ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zDJTI nashriyoti. 1994. – 211 b. (Republican conference dedicated to the 100th anniversary of the International Olympic Committee. Collection of lectures. - Tashkent: UzDJTI publishing house. 1994. - 211 p.)
7. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. – T.: «Sharq», 2008. – B.206. (Ernazarov E. The Olympics is a world sports holiday. - T.: "Sharq", 2008. - P.206.)
8. Xalq so'zi, 2002 yil 3 mart. (People's word, March 3, 2002.)
9. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. –T., 2005. –B.142 (278). (9. Akhmatov M.S. Effective management of mass sports and wellness activities in the continuing education system. -T., 2005. -P.142 (278).)
10. O'zR VM ning "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori // Xalq so'zi, 1999 yil 27 may. (Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to further develop physical education and sports in Uzbekistan" // People's word, May 27, 1999.)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 24 oktabrdagi PF-315-sonli "O'zbekiston Respublikasi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2002 yil 25 oktabr. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-315 of October 24, 2002 "On the establishment of the Children's Sports Development Fund of the Republic of Uzbekistan" // People's word, October 25, 2002.)
12. Safarova M.S., Pulatova Sh.K. Oilada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni // Xotin – qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4-5 may 2018 yil.– Buxoro:

PEDAGOGIKA

"Durdona", 2018. – B.30 – 31. (Safarova M.S., Pulatova Sh.K. The role of women in the development of physical education and sports in the family // Women's sports: opportunities and prospects. Proceedings of the Republican scientific-practical conference, May 4-5, 2018. - Bukhara: "Durdona", 2018. - P.30-31.)

13. Baymuradov R. Viloyatda bolalar sportini rivojlantirishda jamg'armaning o'rni va roli // Xotin - qizlar sporti: imkoniyatlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 4 – 5 may 2018 yil.– Buxoro: "Durdona", 2018. – B.147 – 148. (Baymuradov R. The place and role of the fund in the development of children's sports in the region // Women's sports: opportunities and prospects. Proceedings of the Republican scientific-practical conference, May 4-5, 2018. - Bukhara: "Durdona", 2018. - P.147-148.)

14. Shakarjonova K.T., Djalilova L.A. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi // Zamonaviy ta'lim, 2016.– № 6-son.– B. 63 – 70. (Shakarjonova K.T., Djalilova L.A. The development of physical education and sports in the years of independence in the Republic of Uzbekistan // Modern education, 2016.- No. 6.- P. 63-70.)

15. O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi O'z R Vazirlar Mahkamasining Qarori, 06.06.2003. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On the organization of a system of continuous sports competitions aimed at attracting students and young people to sports", 06.06.2003.)

16. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – B.576 – 582. (16. National encyclopedia of Uzbekistan. Volume 12. – P.576 – 582.)

17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sport-federatsiyalari-uz/>